

PSIXIK RIVOJLANISH VA UNI DAVRLASHTIRISH MUAMMOSI

Shavqatullayev Qandil

Hamraqulov Sanjar

TerDPI Boshlang'ich ta'lif fakulteti

1-bosqich talabalari

Anotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglar tomonidan psixik taraqqiyot mohiyati, unga bo'lgan turli qarashlar, psixik rivojlanish omillari va harakatlantiruvchi kuchlari, yoshni davrlashtirish haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: biogenetik konsepsiya, Go'daklik davri, Ilk bolalik davri, Maktabgacha davr, Maktab yoshi davri, Chaqaloqlik va go'daklik davri, Ilk bolalik davri, Maktabgacha yosh davri, Kichik maktab yosh davri, O'smirlik davri.

Krish. Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Inson ~ biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomonidan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomonidan esa faoliyatning ongli sub'ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Xo'sh, odam psixikasi va hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiat biologikmi yoki inkilobiy xarakterga egami?

Xo'sh, odam psixikasi va hatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiat biologikmi yoki inkilobiy xarakterga egami?

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega. Shu bois,

bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar,

yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim **biogenetik konsepsiya**, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim **sotsiogenetik konsepsiyadir**. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi **biogenetik oim** XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan. Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiat haqidagi ta'limot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiyligi va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlari tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyandalari inson haxsi va uning barcha xususiyatlari «**ichki onunlar**» asosida, ya'ni nasliy xususiyatlari negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqlash bo'yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qaramaqshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqlash

nazariyalariga urg'u berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shveysariyalik psixolog J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko'nikishdan iborat bo'lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi.

Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

1) sensomotor intellekti - tug'ilgandan 2 yoshgacha; 2) operatsiyagacha tafakkur davri -

2) 2 yoshdan 7 yoshgacha; 3) aniq operatsiyalar davri

- 7, 8 yoshdan - 11, 12 yoshgacha; 4) rasmiy operatsiyalar davri.

Fransuz psixologi A.Vallon esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1.homilaning ona qornidagi davri;

2 impulsiv harakat davri - tug'ilgandan 6 oylikkacha;

- 3.his-tuyg'u davri (emotional) - 6 oylikdan 1 yoshgacha;
- 4.sensomotor (idrok bilan harakatning uyg'unlashuvi) davri - 1 yoshdan

3

- yoshgacha;
- 5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha;
 - 6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha;
 - 7) jinsiy yetilish va o'spirinlik davri
- 12 yoshdan -18 yoshgacha.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqaqlash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananev singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug'ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o'zining kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi. Hozirgi vaqtda yosh davrlarini tabaqaqlash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqaqlash nazariyalarini tanqidiy tahlil kilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

- 1.Chaqaloqlik davri inqirozi;
- 2.Go'daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yoshdag'i iiqiroz.
- 3.Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdag'i inqiroz.
- 4.Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdag'i inqiroz.
- 5.Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdag'i inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy yetilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, 17 yoshdag'i inqiroz.

L.S.Vigotskiy o'zining yosh davrlarini tabaqaqlash nazariyasini ilmiy asoslab, ta'riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahsli o'rinnlar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqaqlash nazariysi ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to'g'risidagi mulohazali va olg'a surgan g'oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

- V.A. Kruteskiy bo'yicha:** 1. Chaqaloqlik davri - tug'ilgandan 10 kungacha.
2. Go'daklik davri – 1 yoshgacha.
 3. Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.

4. Maktabgacha yosh davri – 3-5 yoshgacha.
5. Bog'cha yosh davri – 5-7 yoshgacha.
6. Kichik maktab yoshi davri – 7-11 yoshgacha.
7. O'smirlik davri – 11-15 yoshgacha.
8. Ilk o'spirinlik davri – 15-18 yoshgacha.

Har ikkala tasnif ham puxtaligidan, ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganidan qat'iy nazar inson kamolotini to'la ifodalab berishga ojizlik qiladi. Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko'proq ma'lumot beradi. Xullas, ularda yoshlik, yetuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlarini to'g'risida nazariy va amaliy mva'lumotlar yetishmaydi. Shunga qaramay, ular o'rta maktab pedagogik psixologiya fani uchun

alohida ahamiyat kasb etadi. Inson umrining barcha yosh davrlarini qamrab olgan davrlashtirish E.G'. G'oziev, G.S. Abramova hamda horij psixologlari Greys Krayg, Don Bokumning nazariyalarida keltiriladi.

E.G'. G'oziev bo'yicha:

1. Chaqaloqlik va go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha.
2. Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.
3. Maktabgacha yosh davri – 3-6 yoshgacha.
4. Kichik maktab yosh davri – 6-10 yoshgacha.
5. O'smirlik davri – 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha.
6. Ilk o'spirinlik davri – 15-18 yoshgacha.
7. O'spirinlik davri – 18-22 yoshgacha (talabalik).
8. Yoshlik davri – 23-28 yoshgacha.
9. Yetuklik davri 1-bosqichi – 28-35 yoshgacha.
10. Yetuklik davri 2-bosqichi – 36-55 (60) yoshgacha.
11. Keksayish davri – 61 (56)- 74 yoshgacha.
12. Keksalik – 75-90 yoshgacha.
13. Uzoq umr ko'rvuchilar – 90 dan yuqori.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Tarbiya ishlarida o'quvchilarning psixologik va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur, ya'ni mazkur yoshdagi bolalarning talablariga, imkoniyatlari, xususiyatlariga mos keladigan pedagogik ish shakl, metod va vositalarini tanlash va qo'llash lozim. Har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, fuksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to'xtab qolmaydi. Bolaning rivojlanishidagi ayrim davrlarda psixikaning u yoki bu yo'nalishlarida rivojlanish uchun

nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'jadi va ularning ba'zilari vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'jadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

33. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.

34. Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS'PEDAGOGICAL ABILITY. Academia Repository, 2(11), 46-53.

433. 2.Ashurova Sh. F. (2023) SOG`LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO`G`RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI "Zamonaviy ta'linda pedagogika va psixologiya fanlari <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>

434. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.

435. Ashurova Sh.F. .(2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL) <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)

436. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

437. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

438. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 67-71.21.

439. Karimova M.N. Ashurova.Sh.F. (2023) Professional ta'linda tahsil olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va

ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari. Educational Research in Universal Sciences. OAK. 369-373-b

440. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. National Scientific Research International Journal natijalari , 2 (3), 156-161.

441. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.

442. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.

443. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблиинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.

444. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.

445. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.

446. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.

447. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

448. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.

449. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.

450. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.

451. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
452. Нематуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.
453. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.
454. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.
455. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O 'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 1(6).
456. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).
457. Нематуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.
458. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.
459. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43–46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>